

G'ayratov Boburmirzo Alisher o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

E-mail: mirzobobur381@gmail.com

Tel: +998881000158

UDK: 091.122.138

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda korrupsiyaning jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy adolat tamoyillariga va fuqarolarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchiga salbiy ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy omillarning, xususan, halollik, vatanparvarlik, mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishning ustuvor ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, Yangi O'zbekiston, ijtimoiy-ma'naviy muhit, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, halollik tamoyili, fuqarolik jamiyati.

Гайратов Бобурмирзо Алишерович

Преподаватель Шахрисабзского государственного

педагогического института

Э-почта: mirzobobur381@gmail.com

Тел: +998881000158

СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ БОРЬБЫ С КОРРУПЦИЕЙ В ОБЩЕСТВЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье научно и теоретически анализируется социально-духовное значение борьбы с коррупцией в обществе Нового Узбекистана. Раскрывается негативное влияние коррупции на развитие общества, принципы социальной справедливости и доверие граждан к государственным институтам. Также обосновывается первостепенная

важность духовно-нравственных факторов, в частности, формирования честности, патриотизма, ответственности и гражданского сознания, наряду с правовыми механизмами, в борьбе с коррупцией.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, Новый Узбекистан, социально-духовная среда, правовое сознание, правовая культура, принцип честности, гражданское общество.

Gayratov Boburmirzo Alisher ugli

Teacher of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: mirzobobur381@gmail.com

Phone: +998881000158

SOCIAL-MORAL SIGNIFICANCE OF FIGHTING CORRUPTION IN THE NEW UZBEKISTAN SOCIETY

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the socio-spiritual significance of combating corruption in the society of New Uzbekistan. It reveals the negative impact of corruption on the development of society, the principles of social justice, and citizens' trust in state institutions. It also substantiates the priority importance of spiritual and moral factors, in particular, the formation of honesty, patriotism, responsibility, and civic consciousness, along with legal mechanisms, in combating corruption.

Keywords: corruption, combating corruption, New Uzbekistan, socio-spiritual environment, legal consciousness, legal culture, the principle of honesty, civil society.

Kirish.

Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga tahdid soluvchi eng xavfli ijtimoiy illatlardan biri bo'lib, u davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiradi, qonun ustuvorligi tamoyillarini izdan chiqaradi hamda fuqarolarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi. Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida korrupsiyaga qarshi kurash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki ochiq va shaffof jamiyatni barpo etish, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni

ta'minlash hamda demokratik institutlarni mustahkamlash bevosita korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois korrupsiyani faqat huquqiy muammo sifatida emas, balki ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab hodisa sifatida ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat jazolovchi mexanizmlar bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatda halollik, adolatparvarlik, mas'uliyat va vatanparvarlik kabi ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayonda aholining huquqiy ongini yuksaltirish, yosh avlodni korrupsiyaga murosasiz ruhda tarbiyalash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokini ta'minlash alohida dolzarblik kasb etadi [1]. Mazkur holat korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-ma'naviy asoslarini chuqur o'rganish, uning jamiyat barqarorligiga ta'sirini ilmiy asosda baholash va samarali konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni korrupsiyaga qarshi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, subyektlari va mexanizmlarini belgilab berdi. Ushbu hujjatda korrupsiya nafaqat huquqiy jinoyat, balki jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolarning ongiga va ma'naviy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy illat sifatida talqin etiladi [1].

Z.M. Islomovning "Davlat va huquq nazariyasi" kitobida davlat hokimiyati, qonun ustuvorligi va huquqiy ong masalalari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu kitobda huquqiy madaniyat va huquqiy ongning pastligi korrupsiyaning paydo bo'lishiga zamin yaratishi qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan, korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati jamiyat a'zolarida qonunga hurmat, adolat va halollik kabi qadriyatlarni mustahkamlash bilan chambarchas bog'liq ekanligi ilmiy asoslanadi [4].

G.Yuldasheva va N.Gafurovaning "Inson huquqlari" darsligida korrupsiya inson huquqlarining buzilishiga olib keluvchi asosiy omillardan biri sifatida ko'rib

chiqilgan. Mualliflar korrupsiya sharoitida tenglik, adolat va ijtimoiy himoya tamoyillari izdan chiqishini ta'kidlaydilar. Ushbu manba korrupsiyaga qarshi kurashning ma'naviy mohiyatini inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish bilan bog'laydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi.

Yangi O'zbekiston jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahliliga bag'ishlangan ushbu maqolada mavzuni yoritishda analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, ijtimoiy-falsafiy tahlil kabi mantiqiy usullardan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Korrupsiya ijtimoiy hodisa sifatida faqat huquqiy me'yorlarning buzilishi bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslariga putur yetkazuvchi murakkab tizimli muammo sifatida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu illatning mohiyatini chuqur tahlil qilish zarurati, avvalo, jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari – qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat va ochiqlik tamoyillariga zid bo'lgan xatti-harakatlarning ildizini aniqlash bilan bog'liqdir. Korrupsiya shaxsiy manfaatni jamoat manfaatidan ustun qo'yish, mansab vakolatlaridan suiiste'mol qilish va axloqiy me'yorlarning yemirilishi kabi omillar bilan chambarchas tutashib ketadi. Shu jihatdan u nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki jamiyatning ma'naviy immunitetini zaiflashtiruvchi omil sifatida ham baholanadi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati uning jamiyatda adolat tamoyiliga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirishi bilan namoyon bo'ladi. Fuqarolar ongida "qonun hamma uchun barobar ishlamaydi" degan tasavvur shakllansa, bu holat ijtimoiy passivlik, befarqlik va huquqiy nihilizmni keltirib chiqaradi. Natijada jamiyatda mehnat orqali muvaffaqiyatga erishish emas, balki norasmiy yo'llar orqali manfaat topish holatlari ijtimoiy norma sifatida qabul qilinishi mumkin [3]. Bunday muhitda halollik, vijdon, mas'uliyat va burch kabi axloqiy kategoriyalar o'z ijtimoiy qiymatini yo'qota boshlaydi. Demak, korrupsiya nafaqat

iqtisodiy jarayonlarga, balki shaxsning ma'naviy kamolotiga ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi O'zbekiston jamiyatida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida korrupsiya taraqqiyotga to'siq bo'luvchi asosiy xavflardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki modernizatsiya jarayonlari samaradorligi boshqaruv tizimining shaffofligi va adolatli faoliyat yuritishiga bevosita bog'liqdir. Korrupsiya mavjud bo'lgan muhitda davlat resurslari samarasiz taqsimlanadi, ijtimoiy loyihalarning real natijadorligi pasayadi hamda islohotlarning mohiyati soxtalashtiriladi. Bu esa jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini kuchaytirib, rivojlanish sur'atlarini sekinlashtiradi. Shu ma'noda korrupsiya taraqqiyotning institutsional asoslariga zarar yetkazuvchi destruktiv omil sifatida baholanadi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-ma'naviy mohiyati uning avlodlar ongiga ko'rsatadigan uzoq muddatli salbiy ta'sirida ham namoyon bo'ladi [3]. Ayniqsa, yoshlar ongida "muvaffaqiyatga halol yo'l bilan emas, balki tanish-bilishchilik yoki pora orqali erishish mumkin" degan qarashlarning shakllanishi jamiyat kelajagi uchun xavfli tendensiya hisoblanadi. Bunday qarashlar fuqarolik mas'uliyati, vatanparvarlik va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalanayotgan shaxs modeliga zid keladi. Natijada jamiyatda bilim va mehnat asosida raqobat emas, balki norasmiy munosabatlarga tayanuvchi ijtimoiy tabaqalanish kuchayadi. Bu holat esa ijtimoiy tenglik va adolat g'oyalarining zaiflashuviga olib keladi.

Shu bois korrupsiyani Yangi O'zbekiston jamiyatida faqat jinoyat-huquqiy hodisa sifatida emas, balki chuqur ijtimoiy-ma'naviy muammo sifatida baholash ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir [4]. Uning mohiyatini anglash orqali jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasini faqat institutsional choralar bilan emas, balki ma'naviy-ma'rifiy omillar asosida ham shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Zero, korrupsiyaga qarshi kurashning barqarorligi jamiyat a'zolarining ichki e'tiqodi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy mas'uliyat darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Demak, korrupsiyaning ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini ochib berish Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash jarayonida huquqiy mexanizmlar bilan bir qatorda ijtimoiy-ma'naviy omillarning tutgan o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki korrupsiya faqat tashqi nazorat va jazolash choralariga asoslangan tizim orqali emas, balki jamiyat a'zolarining ichki e'tiqodi, axloqiy qarashlari va fuqarolik pozitsiyasi orqali barham topishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashning muhim ijtimoiy poydevorini tashkil etadi. Fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglashi, qonunlarga hurmat ruhida yashashi korrupsion munosabatlarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi va jamiyatda qonun ustuvorligi tamoyillarining real amal qilishiga xizmat qiladi.

Huquqiy ong bilan uzviy bog'liq holda axloqiy tarbiya tizimi korrupsiyaga qarshi kurashning barqaror omili sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yosh avlodni halollik, adolat, mas'uliyat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jamiyatda korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy immunitetni kuchaytiradi [5]. Ta'lim tizimi, oila va jamoatchilik institutlari hamkorligida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar shaxs ongida "korrupsiya – jinoyat" degan huquqiy tasavvur bilan birga, "korrupsiya – axloqsizlik" degan ichki e'tiqodni shakllantiradi. Bu esa korrupsion xatti-harakatlarni nafaqat qonuniy jihatdan, balki ma'naviy jihatdan ham qabul qilib bo'lmaydigan hodisa sifatida qaror toptiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining kuchayishi ijtimoiy-ma'naviy omillarning institutsional ifodasi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtiroki davlat boshqaruvi jarayonlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Jamoatchilik nazorati orqali davlat organlari faoliyatining oshkoraligi ta'minlanar ekan, korrupsion xavf omillari ijtimoiy muhokama maydoniga olib chiqiladi va ular ustidan axloqiy baho shakllanadi. Natijada korrupsiya yashirin jarayon emas, balki jamiyat tomonidan keskin rad etiladigan ijtimoiy illat sifatida namoyon bo'la boshlaydi.

Ijtimoiy-ma'naviy omillarning ahamiyati shundaki, ular korrupsiyaga qarshi kurashni faqat davlatning majburiy siyosati emas, balki jamiyatning umumiy

qadriyatiga aylantiradi. Agar jamiyat a'zolari korrupsiyani muayyan shaxslar xatti-harakati sifatida emas, balki butun jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi hodisa sifatida anglab yetishsa, unga qarshi ijtimoiy mas'uliyat shakllanadi. Bu esa shaxsiy manfaatni jamoat manfaatidan ustun qo'yish holatlariga nisbatan murosasiz ijtimoiy muhitni vujudga keltiradi. Shu tariqa, korrupsiyaga qarshi kurash faqat repressiv chora-tadbirlar tizimi emas, balki ijtimoiy ongni yangilashga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida qaror topadi.

Demak, huquqiy ongni yuksaltirish, ma'naviy tarbiyani kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-ma'naviy modelini shakllantiradi [6]. Bu model shaxsning ichki mas'uliyati bilan tashqi nazorat mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlaydi hamda korrupsiyaga qarshi kurashni barqaror va tizimli jarayonga aylantiradi. Natijada Yangi O'zbekiston jamiyatida halollik va adolat tamoyillari ustuvor bo'lgan ijtimoiy muhit shakllanib, davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch mustahkamlanadi. Shu jihatdan, ijtimoiy-ma'naviy omillar korrupsiyaga qarshi siyosatning nafaqat yordamchi, balki strategik asosini tashkil etadi.

Xulosa.

Yangi O'zbekiston jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, avvalo, uning jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirida namoyon bo'ladi. Korrupsiya faqat iqtisodiy yoki huquqiy muammo sifatida emas, balki jamiyatning axloqiy-ijtimoiy muhitiga putur yetkazuvchi murakkab ijtimoiy hodisa sifatida baholanishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, korrupsiyani kamaytirish va barham yetkazishning samarali mexanizmlari nafaqat qonuniy choralar va jazolash tizimiga, balki huquqiy ongni shakllantirish, ma'naviy tarbiya va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi ijtimoiy-ma'naviy omillarga ham tayanuvchi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, Yangi O'zbekiston sharoitida korrupsiyaga qarshi kurashni muvaffaqiyatli amalga oshirish davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy adolat va shaffoflik tamoyillarini ta'minlash, shuningdek, yoshlar ongida halollik va mas'uliyat ruhini shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur jarayonning tizimli va uzluksiz olib borilishi orqali korrupsiyaga qarshi kurash faqat majburiy siyosat emas, balki jamiyatning ichki axloqiy qadriyatlariga asoslangan barqaror ijtimoiy institut sifatida vujudga keladi. Natijada Yangi O'zbekiston jamiyatida halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillari ustuvor bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy muhit shakllanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 03.01.2017-yildagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
3. Bekmurodov B.M. Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Uzbekistan Anti-Corruption Digest. 2021. №1. – B. 29-32.
4. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Adolat, 2007. – 916 b.
5. Niyozova S.S., Hakimov K.B. Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi: darslik. – Toshkent. 2025.
6. Yuldasheva G., Gafurova N. Inson huquqlari: darslik. – Toshkent. 2023.